



Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)



Dastlabki maʼlumotlar boʼyicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalarini tomonidan 7756,1 mlrd. soʼmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 101,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oʼsishining asosiy omili boʼlib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 4,5 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 41,2 % ga oʼsishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 57,1 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 81,0 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʼrsatkichdir.*



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvariyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish – 47,7 % ga oshgan bo'lsa, tabiiy qum – 11,4 % ga, gaz kondensati - 9,2 % ga, chaqiq tosh 11,7 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish – 8,3 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	107,3	158,5	51,2
Tabiiy qum, ming t.	393,2	348,3	-44,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1743,0	1598,7	-144,3
Gaz kondensati, ming t.	71,2	64,7	-6,5
Chaqiq tosh, ming t.	211,5	186,7	-24,8
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	84,2	54,4	-29,8



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6707,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 61,9 % (67,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 5,6 % (4,6 %) va quyi texnologiyalisi – 31,6 % (25,9 %)ni tashkil etdi.

2019- yil
yanvar-iyul, % da




2020- yil
yanvar-iyul, % da



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 53,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 117,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,3 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,1 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,0 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 169,2 ming tonna portlandsement (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 147,2 % ga o'sgan), 4,8 ming tonna tozalangan gurich (58,5 %) 54,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (19,3 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	24,9	28,2	3,3
Aroq, ming liter 100 % li spirit	2219,6	1610,1	-609,5
Paxtadan yigirilgan ip, t.	4259,6	5702,0	1442,4
Polietulen, ming t.	216,8	208,8	-8,0
Polipropilen, ming t.	56,7	57,8	1,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 934,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,1 %)ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,2 % ga oshganligi kuzatildi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. KVt/s	2036,5	2439,4	402,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	29,6	20,4	-9,2
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	42542,4	46329,6	3787,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,2 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %)ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2695,2	3384,0	688,8
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7965,5	6423,3	-1542,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	20432,6	22867,9	2435,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 25,6 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar -11,9 % ga oshganligi hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 19,4 % ga kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1423,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solish-tirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,2 % dan 63,5 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,5 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 6,2 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 19,9 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 9,1 % ni, Ellikqal'a tumani 8,2 % ni, To'rtko'l tumani 8,2 % ni, Beruniy 7,7% ni , Taxiatosh 6,2 % ni hamda Qo'ng'irot tumanlari 6,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (105,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxtako'pir (142,2 %), Bo'zatov (140,2 %), Kegeyli (126,0 %), Qonliko'l (125,7 %), Mo'ynoq (112,0 %), Chimboy (109,3 %) hamda Taxiatosh (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1423,7	100	105,9
Amudaryo	71,9	5,1	100,1
Beruniy	110,1	7,7	100,0
Bo`zatov	12,2	0,9	140,2
Qonliko'l	85,5	6,0	125,7
Qorao'zak	27,7	2,0	104,1
Kegeyli	34,7	2,4	126,0
Qo'ng'irot	86,9	6,1	100,9
Mo'ynoq	37,4	2,6	112,0
Nukus	28,7	2,0	101,1
Taxiatosh	87,7	6,2	107,5
Taxtako'pir	68,2	4,8	142,2
To'rtko'l	116,7	8,2	100,2
Xo'jayli	129,9	9,1	100,0
Chimboy	83,2	5,8	109,3
Shumanay	42,6	3,0	133,9
Ellikqal'a	116,7	8,2	100,8
Nukus sh.	283,6	19,9	100,0

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,4 %, shuningdek, To'rtko'l tumani 9,0 % ni, Qonliko'l tumani 7,9 % ni va Xo'jayli tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxtako'pir (155,3 %), Bo`zatov (154,6 %), Taxiatosh (152,1 %) Qonliko'l (151,5 %), Mo'ynoq (135,7 %) Qorao'zak(127,6 %), va Ellikqal'a (121,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga
Qoraqalpog`iston Respublikasi	904,1	100	108,1
Amudaryo	46,9	5,2	98,8
Beruniy	51,0	5,6	83,3
Bo`zatov	9,7	1,1	154,6
Qonliko'l	71,4	7,9	151,5
Qorao'zak	16,0	1,8	127,0
Kegeyli	19,3	2,1	106,8
Qo'ng'irot	49,4	5,5	99,2
Mo'ynoq	28,5	3,1	135,7
Nukus	18,2	2,0	100,2
Taxiatosh	64,8	7,2	152,1
Taxtako'pir	57,7	6,4	155,3
To'rtko'l	81,8	9,0	102,8
Xo'jayli	66,4	7,3	87,5
Chimboy	58,4	6,5	111,7
Shumanay	17,0	1,9	112,4
Ellikqal'a	63,4	7,0	121,6
Nukus sh.	184,2	20,4	92,2

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 19,1 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 12,2 % ni, Beruniy tumani 11,4 % ni, Ellikqal'a tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (102,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kegeyli tumanida (162,8 %), Shumanay tumanida (153,2 %) hamda Beruniy tumanida (120,9 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	519,6	100	102,4
Amudaryo	25,0	4,8	102,6
Beruniy	59,1	11,4	120,9
Bo'zatov	2,5	0,5	102,9
Qonliko'l	14,1	2,7	67,4
Qorao'zak	11,7	2,3	83,6
Kegeyli	15,4	3,0	162,8
Qo'ng'irot	37,5	7,2	103,4
Mo'ynoq	8,9	1,7	71,8
Nukus	10,5	2,0	102,6
Taxiatosh	22,9	4,4	58,8
Taxtako'pir	10,5	2,0	97,5
To'rtko'l	34,9	6,7	94,7
Xo'jayli	63,5	12,2	117,5
Chimboy	24,8	4,8	104,2
Shumanay	25,6	4,9	153,2
Ellikqal'a	53,3	10,3	83,7
Nukus sh.	99,4	19,1	118,6

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4267,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.



**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpo'giston Respublikasi	7756,1	101,9
Amudaryo	228,9	100,6
Beruniy	148,5	95,6
Bo`zatov	59,8	104,7
Qonliko'l	173,0	108,9
Qorao'zak	146,2	119,3
Kegeyli	186,6	109,0
Qo'ng'irot	181,5	107,6
Mo'ynoq	77,2	113,3
Nukus	157,3	103,7
Taxiatosh	880,9	121,4
Taxtako'pir	111,7	109,3
To'rtko'l	203,1	103,7
Xo'jayli	290,2	102,8
Chimboy	112,2	102,7
Shumanay	97,1	121,8
Ellikqal'a	179,9	100,3
Nukus sh.	4522,0	97,0


**Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar
va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 58,3 %), Taxiatosh (11,4 %) hamda Xo'jayli (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,8 %), Mo'ynoq (1,0 %) hamda Shumanay (1,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Shumanay (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 121,8 %), Taxiatosh (121,4 %), Qorao'zak (119,3 %), Mo'ynoq (113,3 %) hamda Taxtako'pir (109,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati
(2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Taxtako'pir (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 142,2 %), Bo'zatov (140,2 %), Shumanay (133,9 %), Kegeyli (126,0 %), Qonliko'l (125,7 %), Mo'ynoq (112,0 %), Chimboy (109,3 %), Taxiatosh (107,5 %) tumanlarida sezilarli dara-jada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (14096,1 ming so'm), Taxiatosh (11904,3 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (4073,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 747,7 ming so'm bo'lgani holda, Nukus shahrida – 883,9 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 1696,8 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 1669,7 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida – 1185,7 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 1055,6 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4073,2	747,7
Amudaryo	1145,6	360,1
Beruniy	773,7	573,7
Bo`zatov	2767,1	566,6
Qonliko'l	3378,6	1669,7
Qorao'zak	2764,2	524,4
Kegeyli	2570,7	477,7
Qo'ng'irot	1393,2	666,6
Mo'ynoq	2419,7	1171,6
Nukus	3120,8	568,8
Taxiatosh	11904,3	1185,7
Taxtako'pir	2777,9	1696,8
To'rtdko'l	945,1	542,9
Xo'jayli	2357,3	1055,6
Chimboy	997,0	739,6
Shumanay	1724,1	756,3
Ellikqal'a	1126,8	730,6
Nukus sh.	4073,2	747,7



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1704,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Beruniy tumanida (83,7 %), Qo'ng'irot tumanida (69,0 %), Chimboy tumanida (65,0 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (8,4 %), Taxiatosh (12,2 %), Qanliko'l (13,5 %), Bo'zatov (22,5 %) va Kegeyli (22,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 2493 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1055 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 41,5 %) Nukus shahriga 534 tasi (21,0 %), To'rtko'l tumaniga 282 tasi (11,1 %), Beruniy tumaniga 239 tasi (9,4 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-iyul oyida respublikada 391 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 178 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 45,5 %) Nukus shahrida 65 tasi (16,6 %), To'rtko'l tumanida 44 tasi (11,3 %), Amudaryo tumanida 36 tasi (9,2 %) hamda 33 tasi (8,4 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi sanoat
statistikas bo'llimi Tel.: (61) 224-92-08**